XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 14 - dekabr VI-88-95-2-0-K/23 Buxoro viloyati hokimligi

Viloyat hududida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflarini tartibga solish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4845-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim vazirligining 2023-yil 6-oktabrdagi 01-01/22-550-sonli xati, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-oktabrdagi *(03/06/20-05-38/1678, 03/06/20-05-38/1679-sonli)* xulosasiga asosan hamda hududlarning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILDI:

1. Viloyat hududida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflarini tartibga solish yuzasidan viloyat hokimi o‘rinbosari J.Arashovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining viloyat hududida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari yuzasidan xulosasi inobatga olinsin.

3. Buxoro viloyati hududida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdori ilovaga muvofiq ma’qullansin.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosari J.Arashov viloyat hududida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflarini tasdiqlash bo‘yicha viloyat hokimi qarori loyihasi ishlab chiqilishini ta’minlasin.

5. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (M.Umarov), viloyat sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi (A.To‘xtayev) shaharlar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog‘lig‘iga zararli ta’sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini

oshirish choralarini ko‘rib borsinlar.

6. Tumanlar va shaharlar hokimliklariga Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (O.Mardonov) bilan birgalikda hududlardagi qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi muassasalarning moliyaviy ahvolini yaxshilab borish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil qilish topshirilsin.

7. “Aholitrans” MCHJ (F.Rashidov), “Maxsusavtoxo‘jalik” MCHJ (A.Nazarov), “Toza hudud” DUK (N.Tolipov)ga hududlardagi qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat sifatini yaxshilash hamda yig‘ilgan chiqindilarni ekologiyaga ta’sir ko‘rsatmasdan ishlab chiqarish sohasini joriy etish tavsiya etilsin.

8. Viloyat teleradiokompaniyasi (O.Shabanov), “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalari (Sh.Sulaymonov)ga tabiatni muhofaza qilish, shu jumladan, atmosfera havosi, yer, yer osti boyliklari, suv resurslarini muhofaza qilish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni OAVlarda keng yoritish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning buxoro.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

10. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Homidov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **B.K.Zaripov**

Xalq deputatlari Buxoro viloyat
Kengashining
2023-yil 14-dekabrdagi
VI-88-95-2-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Viloyat hududida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdori

so‘mda

Iste’molchilar	Xudud	Joriy tarif	Yangi tarifga taklif	O‘sish (foizda)
Aholisi uchun (1 kishiga 1 oyda)	Shaharlar	3 650,0	5 000,0	137,0
	Tumanlar	2 500,0	4 000,0	160,0
Yuridik korxonalar uchun (1 tonna)	Shaharlar	118 390,0	186 000,0	157,1
	Tumanlar	89 887,6	160 000,0	178,0
Yuridik korxonalar uchun (1 m3)	Shaharlar	52 683,0	83 000,0	157,5
	Tumanlar	40 000,0	71 000,0	177,5